

Xorazm viloyatida sanoat ishlab chiqarishi

2026-yil yanvar-iyun oylari uchun


- I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni
- II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida
- III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish
- IV. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
- V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

I. Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni

2026-yilning 1- iyul holatiga ko'ra, viloyatda 4 098 ta sanoat korxonasi faoliyat yuritib kelmoqda, shundan 724 tasi (faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 17,7 %) Urganch shahriga, 496 tasi (12,1 %) Urganch tumaniga, 442 tasi (10,8 %) Xonqa tumaniga, 368 tasi (9,0 %) Qo'shko'pir tumaniga va 301 tasi (7,3 %) Shovot tumaniga to'g'ri keladi.

Viloyatda 2026-yilning yanvar-iyun oylarida 672 ta yangi sanoat korxonalari tashkil qilingan bo'lib, ularning 94 tasi Urganch shahriga, 93 tasi Urganch tumaniga, 71 tasi Shovot tumaniga, 63 tasi Xonqa tumaniga to'g'ri keladi.

Korxonalar soni
1-iyul holatiga ko'ra



II. Xorazm viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari hududlar kesimida

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha, 2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyat korxonalari tomonidan 17 972,9 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 108,5 % ni tashkil etdi.

	Hajmi, mlrd so'm	Fizik hajm indeksi, % da
Xorazm viloyati	17 972,9	108,5
Urganch shahri	2 783,4	108,3
Xiva shahri	336,2	118,4
tumanlar:		
Bog'ot tumani	412,3	118,3
Gurlan tumani	315,4	116,3
Qo'shko'pir tumani	572,5	114,5
Urganch tumani	1 050,2	112,7
Hazorasp tumani	523,6	114,3
Tuproqqal'a tumani	6 559,0	96,7
Xonqa tumani	1 048,9	110,3
Xiva tumani	467,9	112,6
Shovot tumani	799,2	109,7
Yangiariq tumani	621,8	114,8
Yangibozor tumani	518,6	108,1

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:

[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(oylik\)](#)


[Sanoat ishlab chiqarish hajmlari \(yillik\)](#)

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Tuproqqal'a tumanida (105 697,8 ming so'm), Urganch shahrida (17 626,1 ming so'm) o'rtacha viloyat ko'rsatkichidan (8 961,7 ming so'm) sezilarli darajada yuqori bo'lgan.

Shuningdek, viloyatda aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sish sur'ati 106,7 % ni tashkil etgan bo'lsa, viloyat ko'rsatkichidan ancha yuqori natija Xiva shahrida (116,5 %), Bog'ot tumanida (116,3 %), Gurlan tumanida (114,4 %), Yangiariq tumanida (113,0 %), Qo'shko'pir tumanida (112,6 %) va Hazorasp tumanida (112,2 %) qayd etilmoqda.


Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi
yanvar-iyun oylarida



Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

2026-yilning yanvar-iyun oylarida sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 17 144,0 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 95,4 % ni tashkil etgani holda, tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda 2,4 mlrd so'm (0,01 %), elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashda 691,3 mlrd so'm (3,9 %) hamda suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilishda 110,2 mlrd so'm (0,8 %) ni tashkil etdi.

Sanoatning asosiy seksiyalari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi,
jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, fizik hajm indeksi
2026-yilning yanvar-iyun oylarida



III. Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2026-yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda 48 898,0 tonna paxta tolasi (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan 92,2 % oshgan), 3 455,8 tonna o'simlik yog'i (65,4 % ga oshgan), 10 597,6 tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (48,4 % ga kamaygan) hamda 42 663 dona yengil avtomobil (maxsus yengil avtomobillardan tashqari) (7,2 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun*	2026-yil yanvar-iyun
Yengil avtomobillar (maxsus yengil avtomobillardan tashqari), dona	38 953	45 992	42 663
Maxsus yengil avtomobillar, dona	12 735	22 627	27 908
Paxta tolasi, t	51 883,8	44 406,5	48 898,0
Shakar, t	92 426,3	70 185,5	-
O'simlik yog'i, t	4 191,0	2 089,9	3 455,8
Yumshoq bug'doy va spelta uni, t	19 172,3	20 535,6	10 597,6
Paxta chigiti, t	78 055,9	74 871,2	76 822,0
Paxtadan yigirilgan ip, t	18 397,7	25 638,9	38 665,7

**2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*


Mavzuga doir ko'rsatkichlar:
[Sanoat ishlab chiqarish hajmlar \(yillik\)](#)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibiga kiruvchi ayrim iqtisodiy faoliyat turlarining sanoat ishlab chiqarish hajmlari

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 19,3 % (2025-yilning yanvar-iyun oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 88,7 %), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,7 % (2025-yilning yanvar-iyun oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 80,0 %) ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatning texnologik tarkibi va ulushi

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,08 % ni (2025-yilning yanvar-iyun oylarida 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 39,3 % (42,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 5,5 % (5,8 %), quyi texnologiyali 55,2 % (51,7 %) ni tashkil etgan.





Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan yengil avtomobillar ishlab chiqarish yanvar-iyun oylarida

Avtomobil ishlab chiqarish sanoatida 2026-yilning yanvar-iyun oylarida 42 663 dona " Damas " (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,2 % ga kamaygan), 27 908 dona maxsus yengil avtomobillari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 23,3 % ga oshgan) ishlab chiqarildi.



Xorazm viloyatida yirik korxonalar tomonidan
ishlab chiqarilgan yengil va maxsus yengil avtomobillar, donada
yanvar-iyun oylarida





**Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
sohasida sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab
chiqarish hajmi**

2026-yilning yanvar-iyun oyida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 86,8 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 96,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun*	2026-yil yanvar-iyun
Jami ishlab chiqarilgan elektrenergiya, mln.kvt.s	599,2	614,9	533,8
<i>shundan:</i>			
<i>yirik korxonalar tomonidan (hisobot ma'lumotlariga asosan)</i>	599,2	614,9	533,8
<i>kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan (kuzatuv ma'lumotlariga asosan)</i>	0	0	0
Issiqlik energiyasi, ming gkal	66,1	93,0	89,4

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish hajmi**

2025 -yilning mos davriga nisbatan tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 1,9 % ga ko'payganligi, oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 30,8 % ga kamayganligi, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar 39,0 % ga oshganligi kuzatildi.

Sanoat mahsulotlari	2024-yil yanvar-iyun*	2025-yil yanvar-iyun*	2026-yil yanvar-iyun
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	12 146 874,0	7 668 904,0	5 308 348,0
Tabiiy suv;suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha	92 005 800,0	102 263 101,0	104 169 408,0

xizmatlar, ming so'm

Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar, ming so'm	16 406 264,0	29 086 824,0	49 156 259,0
---	--------------	--------------	--------------

**2024-2025-yillarning yanvar-iyun oylari uchun ishlab chiqarish hajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan*

V. Sanoat ishlab chiqarishi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi bo'yicha hisoblash metodikasi (qisqacha)

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi to'g'risidagi ma'lumotlarni mahsulot turlari bo'yicha shakllantirish Xorazm viloyati iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlarning (tovarlar, ishlar, xizmatlarning) statistik tasniflagichi (O'zDSt 2914:2014) kodlaridan foydalangan holda amalga oshiriladi. Bularga tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, ishlab chiqaradigan sanoat, elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig'ish va qayta foydalanish bo'yicha xizmatlar (B, C, D, E seksiyalari) kiradi. Sanoat bo'yicha statistika ma'lumotlari quyidagilar asosida shakllantiriladi: a) sanoat mahsulotlari ishlab chiqaruvchi yuridik shaxslarning statistika hisobotlari (oylik, yillik) ma'lumotlari asosida; b) kichik korxonalar, mikrofirmalarning choraklik tanlanma kuzatuvlari natijalari asosida; d) ishlab chiqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlik subyektlarining choraklik tanlanma statistika kuzatuv ma'lumotlari; e) uy xo'jaliklari kuzatuv materiallari.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi bo'yicha ta'rif

Fizik hajm indeksini hisoblash deflyatorlash usuli orqali amalga oshiriladi. Hisoblash mahsulot (ish, xizmatlar) ishlab chiqarishning qiymat ko'rinishdagi dinamikasi to'g'risidagi ma'lumotlarga asoslanib, keyinchalik alohida indekslar iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yiriklashtirilgan indekslar bosqichma-bosqich agregatsiyalanadi. Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish fizik hajm indeksini deflyatorlash usuli bilan hisoblashning afzalliklari: bu usul indeksga turli xil tovarlar guruhlariga kirishga imkon beradi; statistik tanlab olingan narxlardan tegishli tovarlar guruhining vakili sifatida foydalanish mumkin; deflyatorlash usuli ishlab chiqarilayotgan mahsulotdagi sifatli o'zgarishlarni hisobga olishga imkon beradi. Sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmining yig'ma indeksi, bazis yilning qo'shilgan qiymat tuzilmasiga qayta hisoblangan seksiyalar bo'yicha indeks ko'rsatkichlarini agregatsiyalash orqali aniqlanadi.

Sanoat ishlab chiqarishining tarkibi asosiy 4 ta **B, C, D, E** seksiyalaridan tashkil topgan bo'lib quyidagilardan iborat:

B - Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

C - Ishlab chiqarish sanoati

D - Elektr gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash



E - Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish
va utilizatsiya qilish

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/679-sanoat-ishlab-chiqarishining-umumiy-hajmi-qiymatini-baholash-bo-yicha-uslubiy-nizom-ni-tasdiqlash-to-g-risida>
<https://lib.stat.uz/uz/features/sanoat/477-erbgheheh5446456>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Sanoat va energetika
statistikasi bo'limi

Ijrochi:
U.Tadjimuratov
62 227-77-88 (9010)

Manzil:

